



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2023- YIL
YANVAR

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi va jamiyatda ro'y berayotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qiladi, bu esa ushbu masalaning dolzarbliji va ahamiyatini belgilaydi.

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

15 991 birlik

65,1 %


Xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlarning ulushi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

108,0 %

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni **24 565** birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **15 991** birlik korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiyligi sonining **65,1 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,0 %** ni tashkil etgan.

2023- yilning 1- fevral holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi (% da) (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2023- yilning 1- fevral holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumot

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra xizmat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining (**15 991** birlikni) **13 748** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi **86,0** % ni tashkil etdi. Xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yirik tashkilotlarning ulushi **14,0** % ni (**2 243** birlikni) tashkil etdi.



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo'ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi.

Navoiy viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

XIZMATLAR SOHASI

2023- y.

2022- y.

56,1 % Xizmatlar sohasida kichik biznesning ulushi

58,7 %

2023- y.

2022- y.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'mda

778,3

669,3

2023- y.

745,0

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar, ming so'mda

2022- y.

653,8

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 778,3 mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilga (**115,7 %**) nisbatan o'sish sur'ati **105,6 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar)

	Hajm, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	778,3	100,0	105,6
Navoiy sh.	298,8	38,4	108,7
Zarafshon sh.	99,3	12,7	102,8
G'ozg'on sh.	2,4	0,3	103,5
Karmana t.	108,2	13,9	103,0
Konimex t.	18,6	2,4	105,1
Qiziltepa t.	69,8	9,0	105,8
Navbahor t.	46,5	6,0	103,7
Nurota t.	32,6	4,2	103,2
Tomdi t.	10,1	1,3	102,6
Uchquduq t.	26,7	3,4	104,1
Xatirchi t.	65,3	8,4	104,6


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **745,0** ming so'mga yetdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,5 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (ming. so'mda)




Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar)	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	745,0	103,5
Navoiy sh.	1 948,0	105,4
Zarafshon sh.	1 153,1	102,0
G'ozg'on sh.	261,2	102,4
Karmana t.	808,4	100,2
Konimex t.	500,8	103,4
Qiziltepa t.	442,3	104,0
Navbahor t.	394,5	101,8
Nurota t.	373,9	101,6
Tomdi t.	650,5	100,7
Uchquduq t.	686,8	102,0
Xatirchi t.	314,3	102,6


Xizmatlar sohasida kichik biznes

Kichik biznes sektori iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinalarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta'minlashga yordam beradi.

O'sish sur'atlari




Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



2023-yil yanvar oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **436,6** mlrd. so'mga teng bo'lib, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **56,1** % ni shu jumladan, **15,5** % ini kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida kichik biznesning eng katta hajmi Zarafshon shahrida qayd etildi – **78,4** mlrd. so'm.


Xizmatlar sohasida kichik biznesning ulushi (2023- yil yanvar)



2022- yilga nisbatan (**669,3** mlrd. so‘m) 2023- yil yanvar oyida (**778,3** mlrd. so‘m) ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **109,0** mlrd. so‘mga oshdi. 2021- yildan 2023- yilning yanvariga qadar bo‘lgan davrda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati **132,2 %** ga yetdi.

Ko‘rib chiqilayotgan davrlarda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sish omili moliyaviy xizmatlar (**109,3** mlrd. so‘mga), savdo xizmatlari (**69,8** mlrd. so‘mga), transport xizmatlari (**31,2** mlrd. so‘mga) kabi xizmatlar hajmining o‘sishidir.

2021-2023 yillarda Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar)

X
I
Z
M
A
T
L
A
R


S
O
H
A
S
I

- 1 Savdo xizmatlari – 30,1 %
- 2 Moliyaviy xizmatlar – 29,1 %
- 3 Transport xizmatlari – 14,8 %
- 4 Boshqa xizmatlar – 12,6 %
- 5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari – 5,8 %
- 6 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 4,7 %
- 7 Shaxsiy xizmatlar – 2,9 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari eng katta ulushni egallaydi. 2023- yil yanvar oyida savdo xizmatlarining ulushi **30,1** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar (**29,1** %), transport xizmatlar (**14,8** %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**5,8** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlarda (**4,7** %) yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Shuningdek shaxsiy xizmatlar hajmida ham nisbatan o'sish qayd etilibdi, ushbu xizmat turining ulushi **2,9** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati yuqori bo'lgan xizmat turlari, %da



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishining asosiy omili moliyaviy xizmatlarning **144,1 %** ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **130,5 %** ga, ta'lim sohasidagi xizmatlari – **129,5 %** ga, shaxsiy xizmatlar – **101,2 %** ga, savdo xizmatlari – **98,8 %** ga, ijara xizmatlari – **96,0 %** ga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – **95,2 %** ga shuningdek, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar – **93,7 %** hissalariga to'g'ri kelmoqda

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'mda		O'sish sur'ati, % da
	2022- y.	2023- y.	
Xizmatlar – jami	669,3	778,3	105,6
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	26,6	36,3	130,5
Moliyaviy xizmatlar	149,4	226,8	144,1
Transport xizmatlari	113,1	115,0	90,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	93,0	103,1	98,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	41,9	44,8	90,6
Savdo xizmatlari	208,8	234,2	98,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	13,0	14,7	105,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	16,1	21,2	129,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	9,2	10,2	95,2
Ijara xizmatlari	9,6	9,9	96,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	10,9	11,9	93,7
Shaxsiy xizmatlar	17,9	22,6	101,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	29,1	7,9	25,4
Boshqa xizmatlar	23,7	22,8	92,3


Savdo xizmatlari

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyligi sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.


2023-yil 1- fevral holatiga ko'ra xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida ularning savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi ulushi (**53,3 %** yoki **8 529** birlik) ustunlik qilmoqda. Ulardan **99,8 %** ni (8 512 birlik) kichik biznes subyektlari tashkil etadi.

2023-yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi **234,2** mlrd. so'mga yetdi.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar)

Savdo xizmatlari

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

85,1 %

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar

6,7 %

Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlari

8,2 %


Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, (2023- yil yanvar % da)

Hududlar kesimida savdo xizmatlari	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	98,8
Navoiy sh.	85,9
Zarafshon sh.	99,2
G'ozg'on sh.	83,8
Karmana t.	95,9
Konimex t.	99,8
Qiziltepa t.	99,2
Navbahor t.	100,2
Nurota t.	98,7
Tomdi t.	99,8
Uchquduq t.	98,1
Xatirchi t.	99,6

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdo ga bo'linadi.

Hududlar kesimida savdo xizmatlari hajmi

(2023-yil yanvar, mlrd. so'mda)



Transport xizmatlari




2023-yil 1- fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **803** birlikni yoki xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligining **5,0 %**ini tashkil etdi. Ulardan **794** birlik (**98,9 %**) kichik biznes subyektlari hisoblanadi.


Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning yanvar oyida transport xizmatlari hajmi **115,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan ushbu xizmat turining o‘sish sur’ati **90,6 %** ni tashkil etdi.


O’sish sur’ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so‘mda)



*Turlari bo‘yicha
transport
xizmatlarining
tarkibi
(2023- yil yanvar)*



Transport xizmatlarining umumiy hajmida quruqlikdagi transport va quvurlar orqali yetkazib berish bo'yicha xizmatlarining ulushi ustunlik qilmoqda – **90,6 %**. Pochta va kuryerlik faoliyati eng kichik ulushni egallaydi – **1,5 %**.

Transport xizmatlari
(2023- yil yanvar)

Hajm,
mlrd. so'm

O'sish
sur'ati, %

Navoiy viloyati	115,0	90,6
Navoiy sh.	21,8	88,1
Zarafshon sh.	15,9	99,4
G'ozg'on sh.	0,3	92,4
Karmana t.	17,9	81,6
Konimex t.	4,5	92,5
Qiziltepa t.	13,9	91,0
Navbahor t.	9,9	90,1
Nurota t.	7,5	97,5
Tomdi t.	2,9	99,7
Uchquduq t.	5,1	96,7
Xatirchi t.	15,3	97,8

2023- yil yanvar oyida Tomdi tumani (**99,7 %**) va Zarafshon shahrida (**99,4 %**) transport xizmatlari bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Avtomobil transporti xizmatlari

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlari kiradi.


2023- yilning yanvar oyida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **103,1** mlrd. so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **98,7 %** ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi **13,3 %** ni tashkil etdi.


O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi



Avtotransport xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi.

2023- yil yanvar oyida ularning ulushi **54,0** % ni tashkil etdi.


Taqqoslash uchun:
2022- yil ushu ko'rsatkich **49,3** % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari hajmi

(2023-yil yanvar, mlrd. so'mda)



**Hududlar kesimida avtomobil transporti
xizmatlarining o'sish sur'atlari
(2023-yil yanvar)**




Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **77,3** mlrd. so‘mga oshdi va **226,7** mlrd. so‘mga yetdi. Jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **29,1** % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o‘sish sur’ati **144,1** % ni tashkil etdi

O’sish sur’ati

Xizmatlar hajmi (mlrd. so‘mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar)



Moliyaviy xizmatlar tarkibida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari (pul mablag‘larini olish va qayta taqsimlash bo‘yicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2023- yil yanvar oyida ularning ulushi **93,9** % ni tashkil etdi .

**Hududlar kesimida
moliyaviy xizmatlarning
(2023- yil yanvar)**

**O'sish sur'ati,
% da**

Navoiy viloyati	144,1
Navoiy sh.	145,4
Zarafshon sh.	133,3
G'ozg'on sh.	114,7
Karmana t	133,6
Konimex t.	123,1
Qiziltepa t.	141,6
Navbahor t.	130,7
Nurota t.	127,7
Tomdi t.	135,5
Uchquduq t.	132,3
Xatirchi t.	127,9

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyo-satini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **302** birlikka yetdi, shundan **294** tasi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **36,3** mlrd. so'm darajasida qayd etildi va 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **130,5 %** ni tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlari
(2022- yil yanvar)


Hajm,
mlrd. so'm

O'sish
sur'ati, % da



2023- yilning yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Navoiy shahrida qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda ushbu turdagи xizmatlar hajmi 1,4 mlrd. so'mga oshib, 6,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.

**Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi
(2023- yil yanvar)**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush telekommunikatsiya xizmatlariga to'g'ri keldi – **97,1 %**.

Taqqoslash uchun: 2022-yilda bu ko'rsat-kich **95,9 %** ni tashkil etgan.

Telekommunikatsiya xizmatlari

Telekommunikatsiya xizmatlari – bu ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

2023- yilning yanvar oyida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **35,3 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar


Mazkur seksiya kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta'limgni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam mакtab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'limg, shuningdek, kattalar uchun ta'limg (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'limgni qo'llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.

Ta'limg, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyatni amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'limg xizmatlarini ko'rsatish qiymati (kontrakt o'qitish shakli) aks ettiriladi.

O'sish sur'ati

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)




**Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi
xizmatlar hajmi
(2023-yil yanvar)**

	Hajm, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	21,2	129,5
Navoiy sh.	12,9	147,2
Zarafshon sh.	0,8	111,8
G'ozg'on sh.	0,003	100,8
Karmana t	2,9	109,1
Konimex t.	0,4	110,1
Qiziltepa t.	1,0	107,7
Navbahor t.	0,7	107,8
Nurota t.	0,6	106,8
Tomdi t.	0,1	102,3
Uchquduq t.	0,6	107,1
Xatirchi t.	1,2	111,8

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasida xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **364** birlikni tashkil etdi, shundan **292** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi - bu sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar, mlrd. so'mda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **1 485** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 479** birlik kichik biznes subyektlaridir.


Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

O'sish sur'ati




Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



*Hududlar kesimida
yashash va ovqatlanish xizmatlarining
o'sish sur'atlari (2023- yil yanvar)*

Navoiy viloyati




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijara qilingan ko'chmas mulkni ijara berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2023- yilning yanvar oyida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **14,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi. 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati **105,7 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati




Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


(2023- yil yanvar mlrd. so'mda)




Ijara xizmatlari

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.


O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Hududlar kesimida ijara xizmatlarining o'sish sur'atlari (% da)



■ 2022- y.


□ 2023- y.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi – bu kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar) ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruchchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2023- yilning yanvar oyida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **11,9 mlrd. so'm** qayd etilib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **93,7 %** ni tashkil etdi.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar % da)




Me'morchilik sohasidagi xizmatlar


Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar oyida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **22,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,9** %ni, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati esa **92,3** % ni tashkil etdi.

O'sish sur'ati




Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Hududlar kesimida me'morchilik sohasida xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar, mlrd. so'mda)



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 79-223-63-31